

**BOLSHEVIKLAR TOMONIDAN TURKISTONDA SOVET
HOKIMIYATINING ZO‘RAVONLIK YO‘LI BILAN O‘RNATILISHI VA
TURKISTON MUXTORIYATINING TUGATILISHI (1917-1918-YILLAR)**

Karamov Javohirbek O‘tkir o‘g‘li

Qarshi Xalqaro Universiteti ma‘naviyat bo‘limi xodimi

Gmail: javohirbekkaramov@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada 1917-1918-yillarda Turkiston o‘lkasida yuz bergan murakkab siyosiy jarayonlar, xususan bolsheviklar tomonidan sovet hokimiyatining zo‘ravonlik yo‘li bilan o‘rnatilishi va Turkiston Muxtoriyatining tugatilishi masalalari keng tahlil etiladi. Tadqiqotda Turkiston Muxtoriyatining e‘lon qilinishi bilan bog‘liq ijtimoiy-siyosiy faollik, aholining keng qatlamlari tomonidan qo‘llab-quvvatlangan ommaviy namoyishlar va milliy davlatchilik g‘oyalarining kuchayishi yoritilgan. Shuningdek, sovet hokimiyatining muxtoriyatga nisbatan dushmanona siyosati, harbiy kuch ishlatish orqali Qo‘qon voqealarining yuzaga kelishi va uning fojiali oqibatlari ilmiy asosda ochib berilgan. Maqolada Turkiston Muxtoriyatining qisqa muddatli faoliyati, uning siyosiy va ijtimoiy ahamiyati hamda tugatilishi natijasida milliy ozodlik harakatining yangi bosqichga o‘tishi xulosaviy jihatdan asoslab beriladi.

Annotatsiya: В данной статье представлен всесторонний анализ сложных политических процессов, происходивших в Туркестанском регионе в 1917-1918 годах, в частности, установления советской власти большевиками насильственным путем и ликвидации Туркестанской автономии. Исследование охватывает социально-политическую активность, связанную с провозглашением Туркестанской автономии, массовые демонстрации, поддержанные широкими слоями населения, и укрепление идей национальной государственности. Также на научной основе раскрывается враждебная политика советских властей по отношению к автономии, возникновение Кокандских событий с применением военной силы и их трагические последствия. В статье обобщается краткосрочная деятельность Туркестанской автономии, её политическое и социальное значение, а также переход национально-освободительного движения на новый этап в результате её ликвидации.

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the complex political processes that took place in the Turkestan region in 1917-1918, in particular, the establishment of Soviet power by the Bolsheviks through violence and the liquidation of the Turkestan Autonomy. The study covers the socio-political activity associated with the declaration of the Turkestan Autonomy, mass demonstrations supported by broad segments of the population, and the strengthening of national statehood ideas. It

also reveals the hostile policy of the Soviet authorities towards autonomy, the emergence of the Kokand events through the use of military force, and their tragic consequences on a scientific basis. The article summarizes the short-term activity of the Turkestan Autonomy, its political and social significance, and the transition of the national liberation movement to a new stage as a result of its liquidation.

Kalit soʻzlar: Bolsheviklar, sovet hokimiyati, Turkiston Muxtoriyati, Qoʻqon voqealari, 1917-1918-yillar, milliy ozodlik harakati, sovet mustamlakachiligi, qurolli toʻqnashuvlar, xalq namoyishlari, Xalq Komissarlari Soveti, Fargʻona fojealari, milliy davlatchilik, muxtoriyatning tugatilishi.

Sovet hukumati Turkiston Muxtoriyati tajribasidan muhim xulosa chiqarib, bu Turkiston hududida oʻziga xos sovetlar andozasidagi avtonomiya (muxtoriyat)ni tashkil etishga kirishgan edi. Bundan koʻzda tutilgan bosh maqsad – Turkistonning kelajakda mustaqil, suveren davlat boʻlib, ajralib chiqib ketishiga izn bermaslik edi. Bolsheviklar 1918-yil yanvar oyidayoq Turkiston avtonomiyasini tuzish masalasini koʻtarishgan edi. Bu muammo faqat Turkiston Sovetlarining V sʻezdida hal qilindi. Syezd 1918-yil 20-aprel Toshkentdagi ochildi. Uning ish faoliyati 1 maygacha davom etdi¹. Sovetlarning IV oʻlka sʻezdidan farq qilib, u birinchi marta yakka tartibda faoliyat koʻrsatayotgan dehqon deputatlari Sovetlari, musulmon deputatlari Sovetlari hamda ishchi va soldat deputatlari Sovetlarini birlashtirdi. Unda 263 mandatga ega boʻlgan vakillar qatnashdi. Shulardan 86 bolshevik, 70 soʻl eser, 87 partiyasiz edi. Sʻezdda tub yerli mahalliy xalq vakillaridan 50 kishi qatnashdi².

1918-yil 27-aprelda sʻezd «Turkiston Xalq Komissarlari Sovetining navbatdagi vazifalari toʻgʻrisida»gi deklaratsiyani qabul qildi. Bu hujjatda Turkiston Rossiya Federatsiyasining tarkibiy qismi boʻlib qolishi koʻrsatilgan edi.

1918-yil 30-aprelda esa sʻezd delegatlari «Rossiya Sovet Federatsiyasining Turkiston Sovet Respublikasi haqida Nizom»ni qabul qildi. Mazkur nizomda Turkiston oʻlkasi hududi Rossiya Sovet Federatsiyasining Turkiston Sovet Respublikasi (qisqacha TCP nomi bilan tashkil topgan) deb eʻlon qilindi hamda Turkiston Sovet Federativ Respublikasi avtonomiya (muxtoriyat) sifatida idora etilishi taʻkidlab oʻtilgan. Yangi tashkil topgan bu respublika avtonom tarzida boshqarilib, sovet sotsialistik respublikasi sifatida faoliyat koʻrsatganligi uchun tarixiy adabiyotlarda Turkiston ASSR – deb koʻrsatiladi. Shu bilan birga ushbu hujjatga koʻra (dekabr oyining birinchi kunidan chaqiriladigan) ishchi, soldat, krestyan va musulmon – dehqon deputatlari Sovetlari sʻezdi Turkiston ASSRning - oliy qonun chiqaruvchi organi hisoblandi. U yilda ikki marta hamda muhim deb belgilanganda favqulodda chaqirilishi mumkin edi. 1918-yil 30-apreldan Toshkent Turkiston ASSRning poytaxti

¹ Turkestan a nachale XX veka: k istorii istokov natsionalnoy nezavisimosti. –Toshkent: Shark, 2000. –S. 152.

² Turkestan a nachale XX veka: k istorii istokov natsionalnoy nezavisimosti. –Toshkent: Shark, 2000. –S. 153.

deb e'lon qilindi³.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, Sovetlarning III va IV o'lka s'ezdlari orasida (1917-yildan 1918-yil-aprelgacha) Turkiston Xalq Komissarlar Soveti oliy qonun chiqaruvchi va ijroiya organi hisoblangan va Markaziy Ijroiya Qo'mitasi tuzilmagan. Butun Turkiston Sovetlarining V s'ezdida esa Turkiston ASSR ning doimiy oliy qonun chiqaruvchi organi – Markaziy Ijroiya Qo'mitasi (MIQ) va ijroiya organi – Xalq Komissarlari Soveti saylandi. MIQ tarkibi 36 kishidan (ulardan 7 kishi mahalliy aholi vakili) tashkil topdi⁴. U ishchi, soldat, krestyan va musulmon – dehqon deputatlari o'lka Sovetlari s'ezdi oldida javobgar bo'lib, ularini chaqirish va s'ezdlar oralig'ida oliy qonun chiqaruvchi organ hisoblangan. MIQ ning raisi etib bolshevik P.A. Kazakov, ikkinchi raisi etib bolshevik A.F. Solkin saylandi. Xalq Komissarlari Soveti 16 kishi (4 kishi mahalliy aholi vakili)dan iborat bo'lib, u 9 bolshevik, 7 so'l eserni tashkil etgan. XKS ning raisi etib bolshevik F.I. Kolesov tayillandi⁵. S'ezd qaroriga ko'ra Sovetlar va ularning ijroiya qo'mitalari – joylardagi hokimiyat deb e'lon qilindi.

Turkiston Sovet Respublikasi ma'muriy jihatdan Farg'ona, Samarkand, Sirdaryo, Yettisuv, Kaspiyorti, keyinchalik Amudaryo (Turkman) viloyatlariga bo'lingan. Respublika hududi BXSR, XXSR, Kozog'iston ASSR, Afg'oniston, Eron, Xitoy davlatlari bilan chegaradosh bo'lgan. 1918-yilning 5-14-oktabr kunlari Toshkentda Turkiston ASSR Sovetlarining Favqulodda VI s'ezdi ish olib borgan. 14-oktabrda s'ezd RSFSR Konstitutsiyasi andozasi asosida Turkiston Sovet Respublikasi birinchi Konstitutsiyasini qabul qilindi⁶.

Turkistonda sovet hokimiyatining tobora kuchayishi, uning yakkahukmronligining ortib borishi, o'lka hayotining hamma jabhalarining qattiq markazlashtirilishi natijasida sovetlarga qarshi siyosiy muxolifatchi kuchlarini yuzaga keltirdi. Bunday siyosiy kuchlarga Turkiston ASSR harbiy komissari K. Osipov boshchilik qildi. 1918-yil oxirida uning rahbarligida sovetlar rejimiga qarshi faoliyat ko'rsatuvchi Muvaqqat komitet tuzilgan. K. Osipov bosh maqsadi Turkistonda harbiy diktaturani o'rnatishdan iborat edi. U o'lkada butun hokimiyatni o'z qo'liga olish maqsadida 1919-yil 18-yanvar kuni Toshkentda isyon ko'tardi. 19-yanvarga o'tar kechasi K. Osipov buyrug'i bilan Turkiston ASSR MIQ raisi V. Votinsev, Turkiston ASSR XKS raisi V. Figelskiy, ChK (favqulodda komissiya) raisi I. Fomenko, Toshkent Soveti raisi N. Shumilov va boshqa, jami 14 komissarlar otib tashlangan. Toshkent shahri deyarli to'liq isyonchilar qo'liga o'tgan. Bu harbiy mojarolarga mahalliy aholi qatnashmadi. Biroq, tez orada kommunistlar Qo'qon, Samarqand, Perovskdan qizil

³ O'zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. –Toshkent: Sharq, 2000. – B. 80.

⁴ O'zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. –Toshkent: Sharq, 2000. – B. 80.

⁵ Turkestan a nachale XX veka: k istorii istokov natsionalnoy nezavisimosti. –Toshkent: Shark, 2000. –S. 154.

⁶

askar otryadlarini chaqirib, 21-yanvarda bu isyon bostirishgan. K. Osipov avval Farg‘ona vodiysiga (Madaminbek huzuriga), so‘ngra Buxoro amirligiga qochib ketdi. Sovet rejimi Osipov isyoni bostirish bahonasida sovet tuzumidan norozi bo‘lgan ko‘plab kishilarni terror va qatag‘on qilgan. Partiya va sovet idoralarida tozalashlar o‘tkazilgan. Bolsheviklar 1919-yil mart oyi boshida so‘l eserlarni hukumatdan siqib chiqarib, yakka o‘zlari hukmron bo‘lib oldilar.

Bu davrga kelib bolsheviklar hukumati Turkistonida komfirqa (kommunistik partiya)ning yakka diktaturasini o‘rnatish va kuchaytirish, uni har tomonlama o‘ziga qaram qilish yo‘lidan bordi. Shu maqsadida 1919-yil 8-fevralda Butun Rossiya MIK va RSFSR XKSning Turkiston ishlari bo‘yicha komissiya (Turkkomissiya) tashkil etildi. Turkkomissiya tarkibi Sh.Z. Eliava (rais), V.V. Kuybishev (rais muovini), M.V. Frunze, G.I. Bokiy, F.I. Goloshchekin, Ya.E. Rudzutakdan iborat bo‘ldi. 1919-yilning 4-noyabrda Turkkomissiyaning asosiy tarkibi Toshkentga yetib keldi⁷. Bu komissiya amalda mintaqadagi barcha partiya, sovet, xo‘jalik va harbiy tashkilotlarga rahbarlik qilib, markazdagi bolshevistik siyosatni qat’iy ravishda amalga oshirishga kirishdi. TASSR hayotida kechayotgan barcha ijtimoiy – siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar bilan bog‘liq eng asosiy masalalarning birortasi ham Turkkomissiya a‘zolarining izmisiz hal etilmas edi.

Darhaqiqat Turkkomissiya favqulodda va cheklanmagan, siyosiy-partiyaviy hamda davlat hokimiyati vakolatlarini amalga oshirdi. U Turkiston Kompartiyasi MK, Turkiston MIK va XKS ustidan qattiq nazorat o‘rnatdi, lozim topganda ularni tarqatib yubordi, tarkibini o‘zgartirdi. Ichki va tashqi siyosat, iqtisodiyot, armiya kadrlar masalasini o‘z qo‘liga olib markazlashtirdi. Bir so‘z bilan aytganda o‘lkada o‘z diktaturasini o‘rnatgan edi.

1920-yil 19-25-sentabrda bo‘lib o‘tgan Turkiston ASSR Sovetlarining IX s‘ezdi Turkiston ASSRning yangi Konstitutsiyasini qabul qildi, shuningdek, “Turkiston Sovet Respublikasi”ning nomi “Turkiston Sovet Sotsialistik Respublikasi (TSSR)” deb o‘zgartirildi. 1921-yil 11-aprelda Butunrossiya Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi “Turkiston Sovet Sotsialistik Respublikasi tuzilganligi to‘g‘risida” dekret qabul qildi⁸. Bu hujjatda Turkiston SSR ning ma‘muriy hududiy tuzilishi va siyosiy davlat boshqaruvi masalalari belgilandi.

Bu hujjatga ko‘ra Turkiston mustaqil tashqi aloqalar olib borish, o‘z armiyasiga ega bo‘lish, temir yo‘l, pochta, xalq xo‘jaligini mustaqil boshqarish huquqlaridan mahrum etildi. Bular, shuningdek, soliqlar ta‘sis etish, o‘lka budjetini tuzish, sud ishlari, qonunlarga o‘zgarishlar kiritish, amnistiya berish RSFSR tasarufiga o‘tishi belgilandi. Bu bilan Turkiston o‘lkasining davlat boshqaruvi, ichki va tashqi siyosatlari masalalari to‘lasincha RSFSR hukumati tasarufiga o‘tkazilib, markazga qaram

⁷ O‘zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. –Toshkent: Sharq, 2000. – B. 81.

⁸ Turkestan a nachale XX veka: k istorii istokov natsionalnoy nezavisimosti. –Toshkent: Shark, 2000. –S. 162.

respublikaga aylantirildi.

Sovet hukumati Turkistonda hokimiyat organlarini yangi kadrlar bilan to'ldirishda juda ham ehtiyotkorlik bilan ish olib borgan. 1920-yilgacha respublika oliy rahbarlik lavozimlariga mahalliy millat vakillari kiritilmadi. Lekin keyinchalik ular ham oliy rahbariyat tarkibiga jalb etiladi. Masalan, T. Risqulov, N. To'raqulov, Q. Otaboev, A. Rahimboev, I. Xidiraliev, R. Islomov, N. Aytoqov TSSR rahbarlari bo'lishgan.

1924-yil-noyabr oyining oxirida O'rta Osiyoda o'tkazilgan milliy – hududiy chegaralanish natijasida Turkiston SSR tugatilib, uning hududi yangi tuzilgan respublikalar tarkibiga kiritilgan.

Xullas Turkistonda sovet hokimiyati bolsheviklar tomonidan zo'rlik yo'li bilan o'rnatilib, yerli xalq vakillari tomonidan tashkillangan Turkiston Muxtoriyati omma tomonidan qo'llab quvatlanishiga qaramay qizil akarmiya kuchlari hamda doshnoqlar otryadlari tomonidan qonga botirib ag'darib tashlandi. Turkkomissiya Turkiston byurosi, o'rta Osiyo byurosi singari Markazning vakolatli idoralari tomonidan Turkiston ASSRda sovet hokimiyati mustaxkamlanib, mahalliy xalq turmushiga yot bo'lgan kommunistik g'oya singdirildi, iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayot to'lasincha markaz manfaatlariga bo'ysundirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Turkestan a nachale XX veka: k istorii istokov natsionalnoy nezavisimosti. – Toshkent: Shark, 2000. –S. 152-153-154-162.
2. O'zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. –Toshkent: Sharq, 2000. –B. 80-81.